

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 /SS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE




TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ Матиязова Санобар Ражаббайовна	1
2.	СУФУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЙМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Жакбаров Сардор	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИХАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУФУРТА МАҲСУЛОТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ Абдимўминова Соодат Тахиржоновна	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУФУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY- IQTISODIY JIHATLARI M.N.Mamatov	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLAKAT MOLIYASIGA TA'SIRI Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR Talapova Nargiza Baxriddinovna	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ Имомов Ҳамдила Ҳамдамович	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHİYATININIG NAZARIY ASOSLARI Yusupov Ruslan	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSİYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI Maxmudov Samariddin Baxriddinovich	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSİYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi	42
15.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYAVIY RISKLARINI ANIQLASH YO'LLARI Raximov Abduxalil Toshbotirovich	45
16.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ODDIY AKSIYALARI QIYMATI BAHOLASH USULI Xurramov Eshmamat Xudoyberdovich	48



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ODDIY AKSIYALARI QIYMATI BAHOLASH USULI

Xurramov Eshmamat Xudoyberdovich

Termiz davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi tadqiqotchisi
email: x.eshmamat@mail.ru

ARTICLE INFORMATION

Volume: 2

Issue: 1

DOI:https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/235

ABSTRACT

Mazkur maqola aksiyadorlik jamiyatlarini oddiy aksiyalarini qiymatini baholashda moliyaviy aktivlarni baholash usulidan foydalanan avzalliklari va imkoniyalarini haqida bayon qilingan. Shuningdek, oddiy aksiyalarini qiymatini baholashda moliyaviy aktivlarni baholash modeldaridan foydalananining nazariya va amaliy jihatlari yoritilib berilagan. Shu bilan birga, aksiyani qiymatini baholashda tizimli va tizimsiz risklarni inobatga oлgan holda baholashga alohida tuxtalib o'tilgan.

KEYWORDS

Moliyaviy aktivlar, tizimli risk, tizimsiz risk, aksiyaning qiymati, bozor qiymati, kutilayotgan daromad, bozor riski.

Kirish (Введение/Introduction)

Aksiyadorlik jamiyatlarining oddiy aksiyalari iqtisodiyotni rivojlantirish va kapital bozorining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Oddiy aksiyalar kompaniyaning asosiy qimmati qog'ozlari bo'lib, ular aksiyadorlarga kompaniyada mulkchilik huquqini taqdim etadi va bozor qiymatini aniqlashda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Aksiyalarning real qiymatini baholash jarayoni nafaqat kompaniya va uning aksiyadorlari uchun, balki investorlar va iqtisodiyotning boshqa ishtirokchilari uchun ham muhimdir. Bu jarayon orqali aksiyadorlar o'z kapitalining qay darajada samarali boshqarilayotganini bilib olishlari, investorlar esa foydali investitsiya imkoniyatlarini aniqlashlari mumkin.

Oddiy aksiyalar qiymatini aniqlashda bir nechta usullar mayjud bo'lib, ularning har biri turli maqsadlarni sharoitlarga mos keladi. Ushbu usullar fundamental tahlildan tortib texnik, qiyosiy va diskontlangan pul oqimlari tahliliga bo'lgan keng ko'lamli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Mazkur usullarni to'g'ri qo'llash aksiyadorlik jamiyatining bozor qiymatini adolatli baholash va kapital bozorida optimal qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola oddiy aksiyalarning baholash usullarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu jarayonning ahamiyati, asosiy usullari va ularning amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot berishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

1950 yilga qadar ma'lum risklar menedjerlar tomonidan sifatlari baholani, umumlashgan klassifikasiyasidan foydalangan, bularni; konservativ, arzon, o'sayotgan, daromadli va spekulativli deb nomlaganlar. Portfel zamonaviy nazariya fond bozorini aktivlarni ya'ni qimmati qog'ozlarni chucher tahlil etishga asoslangan va miqdor jixatdan yuritila boshlagan, bunda qimmati qog'ozlar portfel tarkibini aniklashda portfel riski va daromadlilikni nisbatlarini bog'likligi va portfeli maqsadi sonli miqdorini beradi. Garri Markovis 1952 yilda "Moliya jurnalı" da chop etilgan "Portfolio tanlash" (Portfolio Selection) maqolasida qimmati qog'ozlarni portfelidagi risk va kutilayotgan daromad o'tasidagi bog'likni o'rganib, portfeli shakllantirish tamoyillarini izohlab berdi [1].

Oddiy akksiyalar qiymatini baholashda moliyaviy aktivlarni baholash modelidan foydalaniлади. Mazkur model asosan riskni o'lchashda ikkita asosiy qismiga bo'lib o'rganadi.

Jan Mosin o'zing ilimiylizlanishida valyuta ayriboshlanishidagi umumiy muvozanatini oddiy model asosida ularning risklilik darajasini bozor xususiyatini o'рганди. Unga ko'ra investorlar o'zlarining portfelining daromad dispersiyasi va kutilayotgan daromadini maksimal

darajasini izlashini ko'rsatib berdi. Bozor riski uchun mukofot nazariyasini umumiy muvozanat valyuta bozorida mavjud ko'rsatdi va uni bozor chizig'i deb nomladi. Bu bozor chizig'ida xar bir dollardan kutilayotgan daromad va daromadni standard chetlanishidagi bog'lanishni ko'rsatadi. U shunday xulosaga keldiki, valyuta kursidan kutilayotgan daromad bilan uning bozor riski o'tasida tug'ridan tug'ri bog'lanish bor dedi [2].

J. V. Duglas 1959 yilda esa xam o'zing ilmiy izlanishlarida aksiyalardan kutilayotgan daromad va ularning bozor riski o'tasidagi bog'lanı tug'ridan tug'ri ekanligi ko'rsatdi. Lekin, ularni empirik natijalari bir necha yil o'tgandan keyin muvafaqiyatsizlikga uchradi. Chunki aktivlarni baholash modelidan bir nechta statistik kamchilik mavjud edi. Blyum M.E 1970 yilda empirik tatqiqotni amalga oshirib, unga ko'ra 251 ta qimmati qog'ozni tanlab 204 oylik kuzatuvida tadqiqot olib bordi [3].

Natijada, kutilayotgan portfel daromadini baholashda Sharp-Linter modelini statistik tahlilini kamchiliklarini ko'rsatdi [4]. Maykl K. Yensen va Mayron Skoulzlar 1972 yilda bozor betasini aniqlashda modelini statistik o'lechov xatoliklarini o'rgandi va natijada kutilayotgan daromad bozor bettasi bilan bog'liq emasligini ko'rsatdi. Ular ularning nazariyasiga ko'ra portfel daromad bozor betasi bilan bog'liqligini ko'rsatdi [5].

Djon R. Grem i Kempbell R. Xarvi 2001 yilda so'rovnomaga tatqiqotini amalga oshirdi unga ko'ra AQSHdagi 392 ta kompaniyaning moliyaviy menejerlari 73.5% aktivlarini baholashda modelidan foydalanimiz deb javob bergan [6]. Dirk Brunen, Eybe de Yong va Kis Kodedjklar 2004 yilda xuddi shunda Evropaning 313 kompaniyasidan so'rovnomaga o'tkazdi va natijada 45% kompaniyaning moliyaviy menejerlari kapital bahosini topishda aktivlarni baholash modelidan foydalishini aytgan [7].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimdan SH.SH. SHoxazamiy doktorlik dissertasiya ishida fond bozoridagi moliyaviy hisoblar kabi masalarni ko'rgan lekin fond bozori aktivlarni baholash modelidan hisob kitoblariga tuhtalmagan. SH.SH. SHoxazamiy qimmati qog'ozlarni tahlilini takomillashtirilishi uchun aktivlarni baholash modelari nazariyalarini foydalishni maqsadga muvofiqidir deydi [8]. Iqtisodchi olim N.G.Karimov doktorlik dissertasiya ishida O'zbekiston Respublikasi qimmati qog'ozlar bozoriga to'xtalib, investision faoliyatni qimmati qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish masallari yo'llarini ochib bergan. N.G.Karimov o'zing boshqa izlanishlarida aktivlarni baholash nazariyasiga tuxtalib, bugungi kunda amaliyotda Markovis nazariyasidan Sharp nazariyasin ko'proq foydalaniyotganini ta'kidlaydi [9]. Iqtisodchi olim X.Qurbanov o'zing izlanishida moliyaviy aktivlarni baholash

modeli “kompaniyaning kapitalini umummiy bahosi belgilashda va uning doirasida amalga oshirilagan investisiya loyihalari uchun talab qilinadigan daromad darajasini aniqlashda katta amaliy ahamiyatga ega” diydi [10]. U.Burxonov va X.Udoyqulovlar o’zining izlanishlarida O’zbekiston sharoitida aktivlarni baholashda mamlakatning kredit modeli hamda segmentasiya va siyosiy tuzatish kiritilgan CAPM (Capital asset pricing model) dan foydalanish mumkinligi tadqiqotlar natijasida ko’rsatib bergenlar [11].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, moliyaviy aktivlarni baholashda dunyo amaliyotida U.Sharp modelidan keng foydalanilmoqda. Ko’pchilik dunyo olimlimlari mazkur modelga tuzatishlar kiritib aksiyadorlik jamiyatlarini oddiy aksiyasini bozor qiymatini baholashda foydalamoqda. Jadal rivojlanayotgan mamlakatlar fond bozorlari kon’yunturasining juda tez sur’atlar bilan o’zgarishi ushu bozorlardagi oddiy aksiyalarni baholashda U.Sharp yaratgan modelga tuzatish kiritilishini taqozo etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarini oddiy aksiyasini baholash mexanizmi mamlakat fond bozorining rivojlanishi va mavjud kon’yunkturaga qarab shakllanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы)

Mazkur maqolada aksiyalar bozor qiymatini baholash bo'yicha tadqiqot usullari muhim ahamiyatga ega, chunki ular bozor tendensiylari, kompaniya qiymati va investisiya uchun qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Aksiyalarning qiymatini baholashda moliyaviy aktivlarni baholash usullaridan foydalangan holda oddiy aksiyaning bozor qiymatini baholash bo'yicha ilmiy nazariyalar va olimlarning fikralari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results)

Moliyaviy aktivlarni baholash modeli “agar aktivlar bozori shaffof bo’lsa, bozor portfelin M da minimum dispersiya chagarasida bo’ladi” diydi. Algebreik munosobatda bu shuni anglatadiki, bozordagi porfeli ushlab turish uchun porfeli minimum dispersiyasini ushlab turish kerakligini anglatadi. Xususan, bozor potfelida N ta riskli aktiv bo’lsa, buni quydagi matematik formulada ko’rshimiz mumkin.

$$E(R_i) = E(R_{ZM}) + [(E(R_M) - E(R_{ZM})]B_{iM}, \quad i=1,\dots,N.$$

Ushbu tenglamada, $E(R_i)$ i dagi aktivlardan kutilayotgan daromad, B_{iM} esa i aktivlarni bozor betasi, bu aktivlaring qatimini bilan bozor indeksini qaytimining kovarasiyani bozor indeksini qaytimi dispersiyasiga nisbatini ko’rsatadi. Buni quydagi formulada ko’rshimiz mumkin.

$$\text{Bozor betasi} = B_{iM} = \frac{\text{Cov}(R_i, R_M)}{\sigma^2(R_M)}$$

YUqorida formuladani o’ng tomonidagi shartli minimum dispersiya $E(R_{ZM})$ aktivlardan kutilayotgan daromadni bozor betasi nolga teng, bu shuni anglatadiki, aksiyalar qaytimi bilan bozor indeksini qaytimini o’rtasida korreliyasiya mavjud emas. Tenglamadagi shartli minimum dispersiya keyingi ko’rsatkichdan keyin $[(E(R_M) - E(R_{ZM})]B_{iM}$ risk uchun mukofoti i , B_{iM} aktivlarni xar bir bozor betasi bir martadan mukofoti. Agar bu formulada risksiz qarz olish va qarz berish bo’lsa, R_f risksiz foiz stavkalari aktivlar $E(R_{ZM})$ ga teng bo’ladi. Natijada SHarp-Linter moliyaviy aktivlar baholash modelini tenglamasi shaklanadi. Bu tenglamani quydagi formulada ko’rshimiz mumkin.

SHarp-Linter model $E(R_i) = R_f + [(E(R_M) - R_f)]\beta_{iM}, \quad i = 1, \dots, N$

$E(R_i)$ aktivlardan kutilayotgan daromad, R_f risksiz foizli daromad (odatda, davlat qimmatli qog’ozlari buyicha tulanadigan foizli daromad), β_{iM} aktivlarning bozordagi daromadligini o’zgarishiga ta’sirchanchiligi koeffitsenti, bozor daromadi bilan aktivlarni daromadini kovarisiyasi va bozor daromadini dispersiyasi aloqasini izohlaydi. $(E(R_M) - R_f)$ bu esa bozordagi riskli aktivlarga pul qo’yib risk evazga mukofot olishdir.

Ko’pchilik olimlar moliyaviy aktivlarni baholash modelini kapital bozor chizig’i va qimmatli qog’ozolar chizig’i bilan ifodalanadi. Ikkila chiziq xam turli xil formula bilan ifodalanidi. Kapital bozor chizig’i (Capital market line) quydagi formula bilan ifodalanadi.

$$E(R_p) = r + \frac{[E(R_A) - r]}{\sigma_M} \sigma_p$$

Qimmatli qog’ozlar chig’izi (Security market line) quydagi formula bilan ifodalanadi.

$$E(R_t) = r + [(E(R_M) - r)]\beta_t$$

Qimmatli qog’ozlar chig’izi β beta qimmatli qog’ozlar aksiyalar riskining yagona mos keladigan chegarasi hisoblanadi. Beta regression analizdan foydalanib hisoblanadi va bozorni tebranishini aniq ko’rsatadigan ko’rsatkichdir va u 0 dan 2 gacha oraliqdagi bo’ladi. Beta koefisientini izohini quydagi jadvalda ko’rshimiz mumkin. (1-jadval)

Moliyaviy aktivlarni baholash modeli riskni o’lchashda ikkita asosiy qismga bo’lib o’rganadi.

1) Tizimli risk

2) Tizimsiz risk

Tizimli risk- moliya bozorining qandaydir segentidagi inqirozli holat bilan bog’liq risk bo’lib, unga inflision risk, qonunchilik xujjatlari o’zgarishi riski, foiz stavkalari riski, buqalar va ayiqlar bozoridagi risk,

1-jadval

Beta (β) koefisintini izohi

Beta β	Betaning tavsifi
$\beta > 2.0$	Qimmatbaho qog’ozlarning bozordagi riskligi bozor riskidan ikki martta katta
$\beta = 1.0$	Qimmatbaho qog’ozlar bozordagi riskligi bozor riskiga bilan teng
$\beta < 0.5$	Qimmatbaho qog’ozlar bozorining riskligi bozor riskidan ikki martta kam
$\beta = 0$	Qimmatbaho qog’ozning riskligi bozor riskiga bog’liq emas

harbiy konfliktlar riski kiradi. Bu riskni diversifikasiya qilib bo’lmaydigan risk xam diyiladi.

Tizimsiz risk-agregirlashgan tushinchalik bo’lib, uzida moliya bozori risklarining barcha turlarini mujassamlashtiradi. Bu risk moliya instrumentlarining u yoki bu turlarini konkret shart-sharoitlardan kelib chiqib tanlash asosida diversifikasiyalanishi paytirishi mumkin.

Xulosa (Заключение. Conclusion).

Aksiyadorlik jamiyatlarining oddiy aksiyalar qiymatini baholash bu investorlarga samarali qarorlar qabul qilish, kapital bozorida ishtirokni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim vositadir. Ushbu baholash jarayonida fundamental, texnik, qiyosiy va diskontlangan pul oqimlari kabi usullar keng qo’llaniladi. Har bir usul o’ziga xos afzallik va chekllov larga ega bo’lib, ular birgalikda ishlataliganda aksiyalar qiymatini aniqroq baholashga imkon beradi. Fundamental tahlil orqali kompaniyaning moliyaviy ko’rsatkichlari o’ganilib, barqarorlik darajasi aniqlanadi. Texnik tahlil esa aksiyalar narxi va savdo hajmi dinamikasiga asoslanib, bozor tendensiylarini bashorat qilishga yordam beradi. Qiyosiy tahlil boshqa kompaniyalar bilan solishtirma ko’rsatkichlarni taqdim etsa, diskontlangan pul oqimlari usuli kompaniyaning kelajakdagagi qiymatini bugungi kun talablari asosida aniqlaydi. Mazkur usullarni qo’llash nafaqat aksiyalar qiymatini aniqlash, balki moliyaviy xatarlarni kamaytirish va aksiyadorlik jamiyatining kelgusi rivojlanishga imkoniyatlarini belgilashda ham muhimdir. Shu sababli, aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ushbu usullardan foydalaniib, o’z moliyaviy qarorlarini puxta o’ylangan va asoslangan holda qabul qilishlari zarur. Oxir-oqibat, aksiyalar bahosining to’g’ri baholanishi nafaqat alohida kompaniyalarning, balki umuman bozorning barqarorligi va rivojlanishiga ijobji ta’sir ko’rsatadi.

References:

1. Harry Markowitz (1952). “Portfolio Selection” The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1. pp. 77-91.
2. Mossin.J (1966). Equilibrium in a Capital Asset Market, 34(4), 768-783
3. Douglas, G.W. (1969), “Risk in the Equity Markets: An Empirical Appraisal of Market Efficiency”, Yale Economic Essays, 9, pp 3-45
4. Blume, M.E., (1970). Portfolio theory: A step toward its practical application. Journal of Business, 43, 152 173
5. Miller, M.H., and Scholes, M., (1972). Rates of return in relation to risk: A re-examination of some recent findings. In Michael C. Jensen (Ed.), Studies in the theory of capital market (pp. 47-78). New York: Praeger
6. Graham, J.R. and Harvey, C.R (2001) “The theory and practice of corporate finance: evidence from the field”, Journal of Financial Economics 60, 187-243

-
7. Kungratov Ilmurod Kuzibay ugli, & Abdumitalibova Rayhona. (2024). SECURING TRAVEL EXPERIENCES: THE IMPACT OF TRANSLATION ON TOURISM INSURANCE ACCESSIBILITY. *Insurance Market of Uzbekistan*, 1(11), 36–38.
8. Dirk Brounen, Abe de Jong and Kees Koedijk (2004) “Corporate Finance In Europe Confronting Theory With Practice”, ERIM REPORT SERIES RESEARCH IN MANAGEMENT, 1-44
9. III.III. Шоҳазамий “Молия бозори ва кимматли когозлар” дарслик Тошкент-2012
10. Н.Ф. Каримов ва Р.Х. Хожиматов “Инвестиционни ташкил этиши ва молиялаштириши” 771-787 бет
11. X.Курбонов “Корпоративные финанссы” Ташкент “Иқтисод-Молия” 2007, с-40
12. U.Burkhanov & Kh.Khudaykulov (2013) “INVESTMENT VALUATION IN EMERGING MARKETS: OPPORTUNITIES & SPECIFIC FACTORS” “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 7, pp 1-9
13. Кўлдошев, К. (2023). Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq muammolar va bu boradagi chet el tajribalarini qo'llash masalalari . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss2/26
14. Восиқов Абдуваҳоб Равшан ўғли. (2024). Портфел инвестицияларни жалб этишни раббатлантириш механизмини такомиллаштириш. Страховой рынок Узбекистана, 1(10), 26–28. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/190>